O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

10.2023

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2023

Muammoli ta’lim tarbiyaviy jarayonni faollashtirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining o‘quv-bilish jarayoniga qiziqishi va xohish-istagining ortishiga sabab bo‘ladi.

Yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi tajribasining mohiyati muammoli ta’limda ko‘rinadi, u o‘z-o‘zidan muvaffaqiyat keltirgan o‘quv jarayoni shakli metodik jihatdan amalda qo‘llanilganda texnik jihatdan jihozlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Didaktik jihatdan yaxshi tayyorlangan o‘quvchi yaxshi hisoblanadi. O‘quv jarayonini oliy cho‘qqi darajasiga olib chiqish muammoli ta’limning nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha o‘rganish demak, shu bilan birga, ta’lim mazmunini to‘la o‘zlashtirib olishda, kreativ fikrlashning shakllanishida kafolatlovchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bikbayeva N.U. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., “O‘qituvchi”, 2007, 208-bet.
2. Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. М., “Просвещение”, 1977, 240 с.
3. Леонтьев А.Н., Пономарев Я.А., Гиппенрейтер Ю.Б. Опыт экспериментального развития исследования мышления. М., 1981, с. 269 – 280.
4. Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., “Yangi asr avlodi”, 2006, c.186.
5. Хабиб Р.А. Организация учебно-познавательной деятельности учащихся. М., “Педагогика”, 1979.

Abdalova S.R. (Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Chirchiq davlat pedagogika universiteti)

O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATGA MOSLASHISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik faoliyatga moslashish, bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik faoliyatga moslashish muammolari, mutaxassis modeli, mutaxassis modelini tuzish bilan bog‘liq turlicha qarashlar kabilar haqida so‘z yuritiladi.*

Аннотация. *В данной статье говорится об адаптации к педагогической деятельности, проблемах адаптации будущего учителя к педагогической деятельности, экспертной модели, различных взглядах, связанных с созданием экспертной модели.*

Annotation. *This article talks about adaptation to pedagogical activity, problems of future teacher's adaptation to pedagogical activity, expert model, different views related to creating an expert model.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, bilim, kompetensiya, pedagogik moslashish, ta’limni modernizatsiyalash, kasbiy, amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik, mutaxassis modeli va boshqalar.*

Ключевые слова: *образование, знания, компетентность, педагогическая адаптация, модернизация образования, профессиональная, практическая, психологическая, методическая, исследовательская, экспертная модель и др.*

Key words: *education, knowledge, competence, pedagogical adaptation, modernization of education, professional, practical, psychological, methodical, research, expert model, etc.*

Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta’lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi – mupakkab ijtimoiy hodisa sifatida umum e’tibopli va ma’naviy qiziqishga molik jarayonga aylandi. Ta’lim tizimining umumiy maqsadi teng huquqli va demokratik davlat talabiga javob beradigan barkamol jamiyat a’zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir.

Faoliyatga pedagogik moslashish yopdamida inson hayotiga, shaxs tapbiyasiga, ijtimoiy munosabatlap pivojlanishiga ma’lum ta’sip ko‘psatish mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga moslashishining ijtimoiy uyg‘unlashuvi esa ta’limni taraqqiy ettirishning muhim omili hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatga moslashish bo‘lajak pedagoglarni tayyoplashdagi mupakkab muammolap qatopida o‘ziga xos o‘pin tutadi. Ayniqsa, ta’limni modernizatsiyalash bilan bog‘liq islohotlarning joriy bosqichida pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashning mazmuni kasbiy, amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik faoliyat turlari bilan bir qatorda pedagogik faoliyatga moslashish bilan boyib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri ekanligi ta’kidlanadi. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining pedagogik faoliyatga moslashish muammolarini o‘rganish uchun

avvalo, bu tushunchaning mohiyatini, ijtimoiy-ma’naviy asoslarini aniqlash hamda uni takomillashtirish yo‘llarini bilish zarur.

Pedagogik faoliyatga moslashishning ijtimoiy jihatdan tadqiq qilinayotganiga hali ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q, shunga qapamay yildan-yilga tadqiqotchilar tomonidan unga qaratilayotgan e’tibop kuchayib bormoqda. Bugungi kunda pedagogik ta’limni takomillashtirish muammolapi jamiyat hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’rifiy jarayonni hosil qilish uchun qarama-qarshi tomonlarning bir-biriga intilish kuchini oshirib, bir-biriga qarshi kuchlarni so‘ndirish yo‘lidan borish kerak.

Bilimga qiziqish ta’lim-tarbiyada bir-biriga intiluvchi asosiy kuch bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri ham berayotgan bilimga qiziqtirish yo‘li bilan ta’lim oluvchilar diqqatini shu bilimga jalb etish hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya beruvchi ta’lim oluvchiga berayotgan bilim mohiyatini ochib, qiziqtirib, to‘g‘ri tushuntirishi davomida miqdor yig‘ilib, sifatga o‘tishi uchun ularga o‘z bilimini bir necha bor takrorlashi shart.

Bugungi ilmiy dunyoqapash pedagogik moslashishga "ijtimoiy hayotning bapcha tomonlapini qampab oluadigan ijtimoiy tizim elementi" sifatida yondashadi. Moslashish deganda, ijtimoiy shaxs, jamiyat ehtiyojini qondipish maqsadida faoliyat yuritadigan insonning mohiyat kuchi, pivojlanish yo‘llapi va natijalapining tapixiy aniq tizimi nazarda tutiladi. "Pedagogik moslashish" tushunchasini oydinlashtirishda inson faoliyatining natijasi sifatidagi talqinini tushunishgina emas, balki uning tashuvchisi sifatida insonning o‘ziga upg‘u bepiladi, muayyan moddiy-ma’naviy qadpiyatlap esa, ob’ekt, kasbni pivojlantipishning vositasi va usullapi sifatida qapaladi. Shu jihatdan olganda moslashish terminini "individning me’yoriy pivojlanishi" sifatida tushunish mumkin.

Faoliyat – umuman olganda, bu jonli tizimlapning tashqi muhit bilan o‘zapo hamkopligi asosidagi adaptiv yo‘naltipilgan faolligidip. Inson faoliyatiga kelganda esa, uni odamlapning ijtimoiy yo‘naltipilgan faoliyati sifatida belgilash mumkin. Moslashish esa mana shu faoliyat usulining o‘zginasidip.

Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining pedagogik faoliyatga moslashishi muammolarini hal etishda, ularni bartaraf qilish uchun pedagog faoliyati mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda shaxs faoliyatining tuzilishini puxta o‘rganish talab etiladi. Pedagogik faoliyat bu, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish usullarini egallash va shaxsdagi kasbiy-pedagogik moslashish sifatlari mavjudligi, sohada to‘plangan kasbiy tajribani ijodiy o‘zlashtirish va yangilash jarayonidir.

Bu ma’noda pedagogik moslashish sifatlari shakllanishining dolzarbligi uning ikki tomonlama muhim jihati: birinchidan, bo‘lajak mutaxassis shaxsining kasbiy faoliyatning dastlabki davrlaridanoq tarbiyalash va ta’limdagi muammolarning yechilishiga faol jalb etilishi, ikkinchidan ta’lim jarayonining sub’ekti hisoblangan o‘quvchi shaxsining sifatli va kelajakka yo‘naltirilgan ta’lim olishining ta’minlanishi, uning har tomonlama rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratilishi bilan belgilanadi.

Pedagogik faoliyatga moslashish o‘ziga minimal, aniqroq qilib aytganda, o‘qituvchiga umumiy faoliyat bilan uyg‘unlik imkonini beruvchi xususiyatlar, sifatlarning muqobil majmuasi, shu bilan birga, nafaqat u bilan munozaraga kirishuvchi, balki uning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shuvchi yaxlitlikdir, deb ta’kidlashimiz mumkin.

Pedagogika nazariyasining rivojlanishi hamda ta’lim va tarbiyaning yaxlit tizimini hozir aynan faoliyat kontekstida tushunish zarurdir. Shu jixatdan, faylasuf olim V.S.Biblerning faoliyat shakllanishi nazariyasi e’tiborlidir, u fanning faoliyat fenomeni sifatida tushunilishi va rivojlantirilishi zarurligini ta’kidlaydi. Uning asosiy g‘oyasiga ko‘ra, o‘qitish va tarbiya jarayoni turli faoliyatlarning muloqoti va o‘zaro hamkorlik qilishidan iborat deb tushuniladi. Bu o‘qituvchining katta nazariy tayyorgarligini, mahoratini, madaniy muloqot olib borish uquvini, yuksak pedagogik faoliyatga moslashuvchanligini belgilaydi.

Faoliyat tarixan shakllangan moddiy va ma’naviy boyliklar, axloqiy me’yorlar, faoliyat namunalari, usullarining majmui ekanligi nazarda tutiladigan bo‘lsa, uning nihoyatda xilma-xil ekanligini va uni inson hayoti davomida o‘zlashtirib olishi mumkin emasligini hisobga olgan holda, ta’lim va tarbiya muassasalari, o‘qituvchi shaxsi oldida turgan eng muhimlarini tanlab olish zarur bo‘ladi. Ushbu o‘rinda pedagogik faoliyatga moslashish tuzilmasi modeli va uning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash zarur.

Ta’kidlash zarurki, «mutaxassis modeli» tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ko‘pchilik olimlar mutaxassis modeli deganda, muayyan ixtisoslik bo‘yicha mutaxassisning umumlashtirilgan obrazi hisoblangan, o‘rganiladigan ob’ektning asosiy tavsifini aks ettiruvchi va bayon etuvchi o‘xshashlikni tushunishadi. Bu tushunchaga N.M.Boritko tomonidan birmuncha boshqa mazmun kiritiladi. Mutaxassis modeli – bu oliy ta’lim muassasasida mutaxassislar tayyorlash jarayonini tartibga soluvchi o‘quv rejalari, dasturlar va boshqa hujjatlarning aks ettirilishidir.

Ya’ni, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi modeli eng umumiy ko‘rinishi o‘zida ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-boshqaruv, axloqiy bilimlarning, mehnat faoliyati uchun zarur bo‘lgan xususiyatlar, ko‘nikmalarning hajmi va tuzilmasining sxematik ifodalanishini aks ettiradi.

Mutaxassis modeli vaziyatni yaxlit tushunish, oliy ta’lim muassasasi doirasidan tashqariga chiqish, o‘rganilayotgan mutaxassislar bizning misolimizda kasb ta’limi o‘qituvchilari faoliyati sohasidagi o‘zgarishlarni oldindan aytish va bu o‘zgarishlarni mutaxassislar tayyorlash jarayonida hisobga olish zarurligini o‘z ichiga olishi lozim. Mutaxassis pedagog faoliyati modelini yaratish murakkab va ko‘p qirrali vazifa bo‘lib, uni hal etish bosqichlarini R.C.Nemov quyidagicha ajratib ko‘rsatadi:

- mutaxassis modelining asosiy parametrlarini dastlab farazlar tarzida, so‘ngra tadqiqot darajasida ajratib ko‘rsatish;
- modelni loyihalash uchun uning ko‘rsatkichlarini tanlash, konstruksiyalash, standartlashtirish;
- mutaxassis modelini yaratish uchun metodik asoslarni ishlab chiqish.

Keyingi yillarda respublikamizning qator olimlari tomonidan ham u yoki bu pedagogik jarayonni modellashtirishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, N.Shodiev talabalarni kasbga yo‘naltirish ishlariga tayyorlash modelini, N.Sayidahmedov esa bo‘lajak o‘qituvchilarni yoshlarning ijtimoiy foydali, unumli mehnatiga rahbarlik qilishga tayyorlash modelini yaratdilar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, N.Sayidahmedovning tadqiqotida o‘qituvchi faoliyati modeli tuzilmasi nafaqat matn tarzida, balki umumiy ko‘rinishdagi sxema tarzida ham keltiriladiki, bu ixtiyoriy pedagogik faoliyatni modellashtirish imkonini beradi.

M.Ochilov bo‘lajak o‘qituvchi, mutaxassisning kasb tayyorgarligi modeliga quyidagilarni kiritadi:

- o‘rganilayotgan ob’ekt: uning individualligi;
- ob’ektning tadrijiy tavsifi: kasb-hunar yo‘nalishi va tayyorgarligi qaror topishi jarayoni munosabati bilan birinchi kursdan boshlab talaba shaxsining o‘zgarishi;
- o‘rganiladigan yaxlit tizim: mutaxassislar tayyorlash tizimi;
- modelning aniq mazmuni: birinchi kursdan boshlab kasb tayyorgarligi jarayonida shaxsning shakllanishi;
- rivojlanish sharoitlariga va o‘qituvchining tajribasiga (malakasiga) bog‘liq bo‘lgan shaxs shakllanishi jarayonlarining aniq taklifi;
- aniqlash usuli: oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining tajribasiga asoslangan sifat, fenomen darajasi;
- asosiy vosita: o‘quv-tarbiya jarayonining kasbiy yo‘nalishi.

Mutaxassis modelini tuzish bilan bog‘liq turlicha qarashlar tahlilidan kelib chiqib, kasb ta’limi o‘qituvchisining pedagogik faoliyatga moslashish modeliga quyidagi mulohazalarni asos qilib olish mumkin:

1. Real jarayonlar va hodisalarni ideal tizimli-tarkibiy namoyon etishga da’vo qiluvchi har qanday konseptual modelda muayyan darajadagi shartlilikka yo‘l qo‘yish hamda ma’lum «umumlashtirish» va, ayniqsa, voqelikni abstraktlashtirish mavjud bo‘ladi.

2. Hodisa va shaxs tushunchalarning o‘ziga xosligi va ichki immunitetligini hisobga olingan holda ong va voqelik birligi prinsipi asosiy prinsip hisoblanadi. Shaxs faoliyati inson fazilatlarining umumlashtirilgan ifodasidir, chunki shaxsning ijtimoiy-madaniy olamda harakat qilishining o‘zaro bog‘liq jihatlarini ifodalovchi ong va faoliyat fazilatlari qarab chiqiladi.

3. Tasvirlanayotgan ob’ektning yaxlitlik shartiga rioya qilingan taqdirda model doirasidagi tushunchalarni va bu qoidalarni belgilovchi umumiy faoliyat sohasidan kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashish sohasiga o‘tkazish amalga oshiriladi.

4. Ushbu modelni tuzishdan maqsad, bo‘lajak pedagog shaxsi faoliyat sohalarining umulashtirilgan tuzilmasini qismlarga ajratish hisoblanadi; mana shu tuzilma vositasida tadqiqotning faoliyatga yo‘naltirilganligi ochib beriladi.

5. Shu munosabat bilan modelni tuzish mantiqi ta’limni insonparvarlashtirish, madaniy va ma’naviy yaratuvchilik faoliyatining shart-sharoitlarini shakllantirish tamoyillariga amal qilish mantiqiga muvofiq keladi. Ushbu tamoyillar ta’lim mazmunini loyihalashning asosi sifatida taqdim etilgan hamda ong va faoliyat birligi konseptual modeliga kiritilgan.

6. Agar taklif etilayotgan model mohiyatning ideallashtirilgan abstrakt ifodasi bo‘lishdan xalos bo‘lib, «ishlay» boshlasa, pedagogik kasbiy faoliyat ham shaxsning aniq fazilatlari ham uning butun yaxlitligida aks ettirishning doimiy jarayoni ushbu «ish»ning real mexanizmi bo‘ladi.

Shunday qilib, oliy pedagogik ta’lim tizimi muayyan o‘qituvchi ixtisosligidan qat’i nazar, talabala-

rni bo‘lajak kasbiy faoliyatiga moslashishini ko‘zda tutuvchi omillarni e’tiborga olgan holda tashkillashtirilishi kerakligini ta’kidlash mumkin. Bu jarayon ularning ongi va faoliyatining o‘ziga xosligini belgilab beradi. Ta’lim jarayonining samaradorlik mezoni, fikrimizcha, talabalarning pedagogik faoliyatga moslashishi bo‘lishi kerak.

Pedagogik kasbiy moslashish bilimlarining talqini pedagogik ijod sifatida o‘qituvchining faoliyatga yaxlit munosabatidan, pedagogik muomala va faoliyat uslubini belgilovchi madaniy muloqotdan kelib chiqadi. Shu o‘rinda muloqot ko‘p ma’noda tushuniladi: u faqat faoliyat bilan muloqot qilish emas, balki o‘quvchilar bilan umumiy madaniy nuqtai nazarni, qiziqishlarni topish orqali bo‘ladigan muloqotdir.

Modelda pedagogik faoliyatga moslashishni jamiyatning ma’naviy amaliy sohasi sifatida aks ettirish shaxsiy yondashish bilan belgilanganligini eslatib o‘tish joiz. Shuningdek, uning ko‘rsatkichlari o‘rtasida mantiqiy aloqalarining umumiy mazmuni ham aniqlandi. Biroq ko‘rsatib o‘tilgan aloqalarning mantiqiy bog‘lanishi aslida ong va faoliyat birligi asosida yotuvchi dialektik qarama-qarshilik orqali yanada kuchaytiriladi.

Oliy pedagogik ta’lim tizimi muayyan o‘qituvchi ixtisosligidan qat’i nazar, talabalarda madaniy jarayonning yaxlit dialektik manzarasini aks ettirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu jarayon ularning ongi va faoliyatining o‘ziga xosligini belgilab beradi. Ta’lim jarayonining samaradorlik, fanlararo aloqadorlik, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiruvchi omil sifatida qaralishini maqsad qilib qo‘ydik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukudusov O. Mehnat ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda maxsus fanlardan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish. -T.: TDPI, 1992. -46 b.
2. Avazbaev A.I. Sovershenstvovanie podgotovki uchiteley trudovogo i professionalnogo obucheniya na osnove integratsii soderjaniya uchebnых predmetov: Avtoref. diss. ... kand.ped.nauk. -T.:2001. -21 s.
3. Ahmadaliev S. Predmetlararo aloqadorlik xarakterli mustaqil ishlardan foydalanish imkoniyatlari // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2001. - № 1. –B. 62-64.
4. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnые texnologii obucheniya. – M.: Prosveщenie, 1995. -335 s.
5. Lixach V.M. Preemstvennost soderjaniya trudovogo obucheniya i professionalnoy podgotovki uchaщixsya. – M.: Vыsshaya shkola. 1990. -111 s.
6. Magzumov P.T. O‘quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: O‘qituvchi, 1991. -206 b.
7. Maxmudov S.Yu. Organizatsionno-pedagogicheskie usloviya podgotovki konkurentno sposobnых spesialistov v professionalnых kolledjax. Diss. ... kand. ped. nauk. -T., 2002. -163 s.

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich (Urganch davlat Pedagogika instituti katta o‘qituvchisi)

YOSHLARNI MA’NAVIY BARKAMOL SHAXS QILIB TARBIYALASHDA OILA IJTIMOIY INSTITUTINING ROLI

Annotatsiya. *Maqolada jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan yoshlar ijtimoiy-ma’naviy muhitining shakllanishida oila ijtimoiy institutining roli va ahamiyatining nazariy jihatlari, mamlakatimizda oila institutiga bo‘lgan e’tibor, shuningdek, o‘sib kelayotgan yosh avlodni axloqiy jihatdan barkamol inson qilib voyaga yetkazishda buyuk mutafakkir olimlarimizning qarashlari yoritib berilgan.*

Аннотация*. В статье рассматриваются теоретические аспекты роли и значения социального института семьи в формировании социально-духовной среды молодежи, которая является основным звеном нашего общества, внимание к институту семьи в нашей страны, а также развитие молодого поколения в нравственно здоровых людей.*

Annotation. *In the article, the theoretical aspects of the role and importance of the social institution of the family in the formation of the socio-spiritual environment of the youth, which is the main link of our society, attention to the institution of the family in our country, as well as the development of the young generation into morally sound people The views of our great thinkers have been highlighted in the process of bringing to adulthood.*

Kalit so‘zlar*: oila, jamiyat, qadriyat, oilaviy munosabatlar, tarbiya, institut, ijtimoiy hayot, turmush, farzand tarbiyasi.*

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA

Satliqov G‘ulomjon Raxmatillayevich, Qurbonova Malohat Dilmurod qizi. Ekstremal separat-subgarmonik funksiyalar.....3
Atamuratov Alimardon Abdirimovich, Bekchanov Sardor Ergash o‘g‘li, Bagbekova Yulduz Jumanazarovna. Parabolik ko‘pxilliklarda analitik funksiyalarning integral tasviri.....6
Raximov Kodirbergan Oramboy o‘g‘li. Ba’zi analitik to‘plamlarning parabolikligi.....12
Hafizov Erkin Alimboy o‘g‘li. Past tezlikli energiya oqimlarida samarali ishlovchi muqobil energiya manbayi generator konsturuksiyasini takomillashtirish.....18
Qurbanov Davron Shavkatovich, Erjanov Tohir Faxraddin o‘g‘li, Raximova Lobarxon Xamro qizi, Yakubov Komlijon Ruzmetovich. Quyosh panelining samaradorligini o‘rganish.....21
Расулов Камол Карим угли. Сепаратно вещественно аналитические функции двух переменных.....23
Zhabborov Nasridin Mirzoodilovich, Husenov Behzod Erkin ugli. Boundary Properties of the Hardy Class for $A(z)$ – Analytic Functions.....26
Foziljonov Mirzabaxrom Baxtiyorjon o‘g‘li, Abdikarimov Azamat Egamberganovich, Matyakubov Davlatbek Davronbekovich. The Impact of the Local Trapped Charge in Boundary Oxide-Semiconductor Layers on the Gate-Drain Capacitance in a FinFET.....35

FALSAFA

Yazdonova Soxiba Kurbanovna. Ta’lim va tarbiya samaradorligiga to‘siq bo‘luvchi kibermakon omillari.....40
Turabova Sevara. Bilish tarixida eristikaning shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy va mantiqiy-gnoseologik tahlili.....43
G‘afurov Doniyor Oripovich. Yangi O‘zbekistonda oila munosabatlarining huquqiy asoslari hamda ma’naviy qiyofasi.....45
Navro‘zova Gulchehra Ne’matovna. Kamtarinlik ila kamolga yetgan valiy.....48
Nurova Shoxida Naimovna. Ibn Sino ijodida ma’rifat va jaholat kurashi.....50
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich. İnson qadri taraqqiyoti rivojida ilm-fanning o‘rni.....53
Raxmatova Xolida. Xoja Ahror Valiy ma’naviy merosida tasavvufiy tushunchalar sharhi.....55

TILSHUNOSLIK

Arzimova Sayora Nagmet qizi. Matn avtorizatsiyasi bilan bog‘liq holatlarni lingvistik ekspertiza qilishning qonuniy metodologik asoslarini yaratish muammolari va zarurati.....58
Norova Gulsanam Maxsutovna. Urf-odat ifodalovchi leksemalarda tabu va evfemizmlar.....60
Solijonov Muhammadjon Zokirjon o‘g‘li. Lingvokulturologiya zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishi sifatida.....66
Djurayeva Yulduz Abdullayevna. Ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik-frazeologik sinonimik qatorlarning qiyosiy tahlili.....68

ADABIYOTSHUNOSLIK

Yaxshiyeva Zebo Rashidovna. O‘zbek va jahon yozuvchilari bosh qahramonlariga singdirilgan millatlararo tolerantlik masalalari.....71
Kushatova Nargiza Rustamovna. Drayzer ijodida Yevropa an’anasi.....73
Hayitova Laylo. Shuhrat Matkarim hikoyalarida qahramon ruhiyati tasviri.....77
Jo‘rayeva Go‘zal. Firoqiy she’riyatida ittifoq san’ati.....80
Nizomova Shoxista Shodiyevna. Suv va olovga marosimiy munosabatlarning zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi talqini.....82

PEDAGOGIKA

Kimsanov Oxunjon Ilhomjon o'g'li. Xorijiy davlatlar va mamlakatimiz misolida oliy ta’limda o‘qitishning kredit-modul tizimining qo‘llanilishi.....85
Xalilova Maxfuza Maxamadjonovna Oliy ta’limda mezonlarga asoslangan nazorat va uning turlari.....88
Bozorov Zavqiddin Ravshanovich, Mamatoxunova Yulduzxon Abduraimjon qizi. Zamonaviy o‘qitish metodikalarining “matritsaning rangi” mavzusiga tatbiqi.....91
Avazov Jo‘rabek Donayevich. Aralash ta’lim texnologiyasini talabalarning fazoviy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda qo‘llash.....94
Ergasheva Durdona Safarali qizi. Farzand tarbiyasida ko‘zga ko‘ringan xatolar.....97
Farmonova Shabon Muhamadovna. O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish.....100

Yuldosheva Saodat Azizovna. Adabiyot ta'limi jarayonida ifodali o'qishning dolzarbligi.....103
Soliyev Erkin Mamatkarimovich. Bo'lajak muhandislik yo'nalishi talbalariga chet tili o'qitishning ahamiyati...106
Xudoykulov Rustam Quchqorovich. Bo'lajak qurilish muhandisliklarida texnologik kompetentlikni rivojlantirishda fanlarning tavsifi.....109
Kirgizova Nargiza Xudoyberdiyevna. To'garak mashg'ulotlarida visual o'qitish texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlari.....112
Davlatova Sayyora Toshpo'latovna. Ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirishda ekopedagogik tashxis.....115
Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abssessial va ordinatal bog'lab shakllantirish.....118
Abdalova S.R. O'qituvchining pedagogik faoliyatga moslashish jarayonini modellashtirish 121
Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich. Yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalashda oila ijtimoiy institutining roli.....124
Bekimbetova Gulbaxar Risbayevna. Qoraqalpoq tilini o'qitishda lingvometodika ishlari muammo sifatida.....128
Фатхуллаева Муниса Гайрулбек қизи. Необходимость повышения коммуникативной компетентности личности в современном образовательном процессе.....131
Toshkentova Sharofatbonu. Linguistic and Practical Features of E-learning Tools.....133
Umarova Ayman Iles qizi. The Concept of Pedagogical Tolerance in the Educational Process.....136

ILMIY AXBOROT

Achilov Abror Niyatqobilovich, Najmiddinova Muslima Azamat qizi. O'zbekistonda korxona, tashkillotlarni xususiylashtirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari.....138
Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna. XX asr oxiri – XXI asr boshlari tarixshunosligida elektrlashtirish masalasining yoritilishi.....140
Ismailov Shuhrat Atamurodovich. Xorij tajribasi asosida imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimi.....142
Sobirova Nasiba Erkinjonovna. Tahdid aktining pragmatik vazifalari.....145
Jabborova Saodat Sattorovna. Ma'naviy salohiyat – ijtimoiy taraqqiyot manbayi.....148
Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlanish tarixi.....150
Abdullayev Begzodbek Xoldaraliyevich. Mediadiskurs va mediareklama tushunchasi.....152
Kallibekova Gulnara Palbekovna, Allamuratova Dinara Xayraddin qizi. "Qaraqalpaqstan jaslari" gazetasining qoraqalpoq adabiy tilini rivojlantirishdagi faoliyati.....156
Qalandarova Farida Azamatovna. Muhaddislar sultoni Imom al-Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi.....160
Mamatov Ravshanbek Rustamovich. Gerta Mullerning asarlarida nutq vositalaridan foydalanish jarayonlari....162
Barnoev Orifjon Dilshodovich. Impersonal Sentences in Russian and English.....165
Kurbonova Marguba Sotvoldiyevna. Phraseological Combinations, Phraseological Units and Phraseological Fusions of Somatisms in English and Uzbek.....167
Zakirova Madina Damirovna. Cognitive-Stylistic Approach to the Analysis of the Concept "Mafia" in "the Godfather" by Mario Puzo.....173
Kalimbetov Sharapat Maxsutbayevich. Conceptualization of Sadness/Qayǵi Emotions in Poetic and Prose Texts.....177
Nabiyeva Zarrina Isomiddinovna. Lexico-Semantic Field Interpretation of Social Relation Verb Lexemes.....184
Avezova Dildora Davlatovna. Historicisms and Archaisms.....187
Qarshiyeva Tamara Ibroximovna. Cultural Hybridity and Identity Construction in Multicultural Literature.....190
Saidova Gulyora Abduhakimovna. The Important Role of Teaching Written Translation to Lower Course Students.....194
З dzfqse Θ∫ Θdsc Θs ɔzteɔ Θgə dΘ ʉtsɥ∫Θdz dΘʏ fɳsfhɳɔdzʷʁ ɦ Θʏ ʷLʳ ʕtsɔtsƈts tsʁtɛΘ.Θ ɥj dzsɔj ʕΘ tɕj tʃtɕj Lj dzs∫tɛzj dʒΘʏ ʷtɛΘ.j tscdzsƈ∫Ldʒ∫Θdʒ∫, tʃtsfɥdzsɔ∫ɥ∫Θdʒ∫, tʃtsƈtsɔtstɛʕ∫Θdʒ∫, ɔLG∫[dʒtsfɳʷLᴵ ʷLʳ ʕΘ ɕ[ʕzdz lszt꜀ (dΘ dʒ∫Θsj tɑ∫Θdʒ tɛzfɳfʃtsƈts ʷLʳ ʕΘ.....198